


FARG'ONA VILOYATIDA TURIZM VA DAM OLISH SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Farg'ona viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar soni 3 tani tashkil qilib, 2016 yilda ular tomonidan 9119 nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko'rsatildi.

2016 yilda Farg'ona viloyatida 32 ta mehmonhona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari 8 tani tashkil etadi. Joylashtirilgan shaxslar soni 47190 nafar bo'lib, MDH mamlakatlardan 3842 ta, Xorijiy mamlakatlardan 6659 ta shaxs joylashtirilgan.

1-rasm

2016 yilda Farg'ona viloyatida mehmonhona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida MDH, xorijiy va Farg'ona viloyati fuqarolari o'rtasidagi taqsimlanishi, foizda.




2016 yilda Farg'ona viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar tomonidan 7168 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, uning qiymati 4977,4 mln. so'mni tashkil qildi.

1-jadval

2016 yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati

	Soni, birlik	Qiymati, mln.so'm
Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari jami	7168	4977.4
Ulardan bevosita aholiga	7168	4977.4
shu jumladan:		
O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	2972	1359.7
Chet el mamlakatlari bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	3696	3568.3
O'zbekiston xududi bo'yicha MDH fuqarolariga	-	-
O'zbekiston xududi bo'yicha boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga	500	49.4

2016 yilda Farg'ona viloyatida jamoaviy joylashtirish vositalari



2016 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 40 tani tashkil qildi. Ularni, yillar bo'yicha tamsimlanishi.

2016 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni. (2013-2016 yillar)

